



IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Ro'ziqulov Sherzodbek Maribjonovich

Andijon davlat pedagogika instituti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7801749>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2023

Accepted: 04th April 2023

Online: 05th April 2023

KEY WORDS

Maorif, umum ta'lim, kasb xunar ta'limi, texnikum, oliy ta'lim tizimi, kommunistik partiya, siyosat, mafkura, kommunizm, rivojlangan sotsializm, fan va madaniyat, "baynalminalchilik", "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik", qayta qurish, qaror, qonun.

ABSTRACT

Maqolada, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, ta'lim sohasiga oid sovet hokimiyati chiqargan qonun va qarorlar, ularni hayotga tadbiiq etishdagi muammolar, ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar hamda ta'lim tizimida vujudga kelgan muammolarni mavjud manbalar asosida yoritishga harakat qilingan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonda sovet hokimiyati maorif, fan va madaniyatni rivojlantirishga e'tibor bermadi, deyishga hech qanday asos yo'q. Jumladan, oliy ta'lim tizimida ham. Urushdagi katta yo'qotishlar, oliy ma'lumotli hodimlarning son va sifat jihatidan kamayib ketishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida urushdan keyingi yillardayoq oliy ta'limni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqardi. Shu boisdan ham urushdan keyingi dastlabki yillardanoq oliy va o'rta malakali mutaxassislar hamda ommaviy kasblarni egallagan kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

Biroq bu tarmoqlardagi faoliyat ulug' davlatchilik siyosati manfaatlariga bo'ysundirilgan holda olib borildi. Bu siyosatni "baynalminalchilik" va "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" deb atalgan shovinistik g'oyalar asosida amalga oshirildi. Chunki tashqi shakl va tashviqot-targ'ibot nuqtai nazaridan haqiqiy baynalminalchilik tusi berilgan bo'lsada, amalda bu g'oya har qanday milliylik va milliy manfaatni nazar-pisand qilmas, milliylik va milliy manfaat g'oyasi tarafdorlarini iskanja ostiga olar va qatag'on qilar edi. "Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik" madaniyat g'oyasi ham aslida mahalliy millatlar ongini zaharlash quroli bo'lgan. Chunki "shakl" shunchaki ishlatilgan holda asosiy maqsad g'oya mazmun pardasiga o'ralgan bo'lib, u milliy qadriyatlarini yo'q qilib "sotsialistik" niqob ostida ruslashtirish manfaatlariga xizmat qilar edi.

1946-1990 yillarda O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni quyidagi raqamlar ko'rsatadi: 1940-1941 o'quv yilida O'zbekistonda 98 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari mavjud bo'lsa, 1960-1961 o'quv yilida ularning soni 75 taga tushib qoldi, 1988



yillarda esa 248 tani tashkil etdi. Shu yillar mobaynida ularda o'quvchilar soni ham o'sib bordi: O'rta maxsus o'quv yurtlarida o'quvchilar soni 1940-1941 o'quv yilida 25,1 ming, 1960-1961 o'quv yilida 292,0 ming kishini tashkil etdi[1.266].

1950-1953 yillarda respublika oliy o'quv yurtlarida 16.600, o'rta maxsus bilim yurtlarida 19 ming mutaxassis tayyorlandi. Biroq, urushdan keyingi yillardagi o'zbek qishloqlari va shaharlaridagi og'ir iqtisodiy ahvol mahalliy aholi yoshlarini oliy maktablarga kirib o'qishlariga imkon bermas, ulardan yuqori malakali mutaxassis xodimlar tayyorlash ishiga to'sqinlik qilardi. Xususan, 1950 – 1953 yillarda oliy o'quv yurtlarini bitirganlarning atigi 33 foizini, o'rta maxsus o'quv yurtlari bitiruvchilarining esa 33 foizini o'zbeklar tashkil qilgandi[2.574], xolos. Mahalliy yoshlardan malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishiga uncha e'tibor berilmas, ko'proq rusiy zabon aholi vakillari oliy va o'rta maxsus ta'limga tortilar edi. Mahalliy yoshlarni oliy ta'limga tortish hamon muammoligicha qolayotgan edi.

Mahalliy millatga mansub yoshlarni oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlariga bunchalik kam jalb etilishining yana boshqa o'ziga xos sabablari ham bor edi, albatta. Bulardan birinchisi, o'quv yurtlariga kiruvchi yoshlar o'rta maktablarda ommaviy-siyosiy tadbirlarga, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga (ayniqsa qishloq yoshlari) asossiz ravishda ko'plab jalb qilinishi oqibatida ular oliy o'quv yurtlariga kira olishlari uchun talab qilinadigan bilimlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasdilar. 1960 yildan boshlab oliy o'quv yurtlari qoshida maxsus tayyorlov kurslarining tashkil qilinishi va ularga asosan qishloq yoshlarini jalb qilinishi fikrimizning to'g'riligidan dalolatdir. Yana bir muhim sabablardan, oliy o'quv yurtlariga kirish uchun sinov sifatida xorijiy tillardan imtihon qo'yilishi va talabalarga rus tilida (80-yillardan boshlab) dars o'tilishi edi. Natijada respublika oliy o'quv yurtlarida qishloq yoshlarining salmog'i kamayib ketdi. Chunki, qishloq maktablarida na xorijiy tillar, na rus tili (bu soha o'qituvchilarining yetishmasligi yoki ularning qishloq maktablarida ishlashni xohlamasliklari sababli) yetarli darajada emasdi, ayrim qishloq maktablarida esa umuman bu fanlar o'qitilmas edi. Bu hol oliy maktablarda shaharlik yoshlarning sonini ko'payib borishiga, qishloqlarda esa oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarning yetishmaslik muammosini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan edi.

Ayni paytda, 1946 – 1990 yillar oralig'ida O'zbekiston SSRda oliy o'quv yurtlari tarmog'i, soni ham o'sib borgan. 1940-1941 o'quv yilida respublikadagi 30 ta oliy o'quv yurtlarida 19,1 ming talaba tahsil olgan bo'lsa, 1958 yilda oliy o'quv yurtlariga 18,5 ming kishi yoki 1953 yildagiga nisbatan 5 mingdan ko'proq talaba qabul qilindi. Yangi institutlar – Andijonda meditsina instituti, O'rta Osiyo Meditsina-pediatriya instituti, Toshkentda fizkultura va elektrotexnika institutlari ochildi. Respublikadagi 31 ta oliy o'quv yurtlarida o'qib turgan talabalar 1959 yilda 88 ming kishiga yetdi[3.526]. 1960-1961 o'quv yilida O'zbekiston SSRdagi 31 ta oliy o'quv yurtlarida 1001,3 ming talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1985 yilga kelib respublikadagi oliy o'quv yurtlarining soni 42 taga, ularda tahsil oluvchi talabalar soni esa 285,5 ming kishini tashkil qilgan edi[2.575]. 1987-1988 o'quv yiliga kelib esa oliy o'quv yurtlari soni 43 taga, unda tahsil olayotgan talabalar soni 300,3 ming kishiga yetdi[1.280].

Bundan tashqari, ko'pgina o'zbek yoshlari Moskva, Leningrad, Kiev, Xarkov va boshqa shaharlardagi oliy o'quv yurtlarida ham o'qigan edi. RSFSR va Ukrainadagi pedagogika institutlarida rus tili va adabiyoti fakultetlariga O'zbekistondan ko'plab talabalarning qabul qilinishi va o'qitilishi ham ruslashtirishning bir vositasi sifatida namoyon bo'ldi.



Bundan tashqari ko'rilayotgan davrda O'zbekiston SSRdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya beruvchi pedagog xodimlar tarkibida ham mahalliy millat vakillarining soni ancha kam bo'lgan. Masalan, 1969 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston SSRdagi oliy o'quv yurtlarda jami 12330 nafar ilmiy-pedagogik xodimlar mehnat qilayotgan bo'lsa, ulardan 6184 nafari, ya'ni 53,3 foizi mahalliy millat vakillari bo'lgan. Qolgan ilmiy-pedagogik xodimlarning aksariyati rusiy zabon aholi vakillaridan iborat edi[4.13].

O'rta maxsus bilim yurtlari soni hamda ularda t'lim oluvchilar soni ham ko'rilayotgan davr oralig'ida ortib bordi. 1963-1964 o'quv yilida 85 ta texnikum va bilim yurtlarida o'qib turgan talabalar 55,3 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1985 yilga kelib respublikada o'rta maxsus bilim yurtlar soni 249 taga, unda ta'lim oluvchi o'quvchi-talabalar soni 281700 yetgan edi[2.575].

XX asrning 60-yillarida O'zbekiston SSRdagi mavjud oliy o'quv yurtlarida yangi-yangi fakultetlar ham ochila boshlandi. Oliy ma'lumotli kadrlarni yetkazishda kechki va sirtqi bo'limlarning faoliyati ham keng yo'lga qo'yildi. Natijada 1966-1967 o'quv yiliga kelib respublikadagi oliy o'quv yurtlarida talabalar soni 1940 yilga nisbatan, kechki bo'limda 23 baravar, sirtqi bo'limlarda esa 7,5 barobarga ortib ketgan edi[5.230-231].

Biroq bular miqdor ko'rsatkichlaridagi ayrim siljishlar edi. Lekin masalaning asosiy jihati – oliy ta'lim mussasalarini bitirib chiqayotgan mutaxassislarining sifati va saviyasi masalasida ko'plab muammolar mavjud edi. "Sotsializmning afzalligi"ni "ko'z-ko'z" qilish maqsadida asosiy e'tibor oliy o'quv yurtlarining sonini va unda o'quvchi talabalar sonini ko'paytirishga intilinib, ta'limning sifati, zamonaviy texnika fanlarni talaba yoshlarga puxta o'rgatishga e'tibor qaratilmadi[6.27-28]. Bu esa oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning jahon talabalaridan jiddiy ortga qolishiga, mablag'larning behudaga sarflanishiga, mutaxassislardan ishlab chiqarishda samarasiz foydalanishga olib keldi.

Shu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi; mutaxassislik bo'yicha asosiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish o'rniga barcha oliy o'quv yurtlarida kommunistik mafkurani shakillantirish KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini o'qitishni yanada yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirishga asosiy urg'u berildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlarida o'qitiladigan fanlarning o'quv dasturlari ham Moskvada tayyorlanar va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilardi va batamom xukumron mafkura kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilar edi.

Sovet hokimiyati ko'rilayotgan davrda o'rta maktab, o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida ulug' millatchilik siyosatini avj oldirdi, ruslashtirish siyosatini yuritdi. Rus tilini o'rganish uchun ajratilgan soatlar bir necha barobar oshirilib, ta'limning barcha tizmlarida bu tilni "ikkinchi ona tili", "dohiy Lenin so'zlagan til" sifatida o'rganish majburiy qilib qo'yildi, u davlat imtihonlari va oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga kiritildi. Aksariyat oliy o'quv yurtlarida darslar, asosan, rus tilida olib borildi. Hatto ijtimoiy-gumanitar fanlarni ham rustilida o'qitish harakat qilindi.

Maktabdan tortib oliy o'quv yurtlariga qadar mahalliy millat vakillariga rus tilini o'rganish majburiyati yuklandi. Rus tilida so'zlashuvchi o'g'il-qizlarga o'rta maxsus ta'lim maskanlari, oliy o'quv yurtlarida o'z istak-xoxishlariga ko'ra chet tillardan birini tanlab



egallashliklari uchun barcha shart-sharoitlari yaratib berilgan bo'lsa, mahalliy millat vakillari uchun bunday imkoniyat yo'q edi. Ular oliy ta'lim maskanlarida ham faqat rus tilini o'rganishlari kerak edi. Umumta'lim va oliy o'quv yurtlarida yig'ilishlar rus tilida olib boriladigan bo'lib ketdi. Yig'ilishlarda ona tilida so'zlash qoloqlikka va millatchilikka yo'yilardi. Ta'lim maskanlarida haftada bir marta rus tili kunlarini tashkil qilish odat tusiga aylandi. Shu kuni talaba-o'quvchilar o'zaro faqat rus tilida muomala qilishga majbur edilar, o'z ona tilida o'sha kuni gaplashish mumkin emas edi.

Ta'lim maskanlaridagi barcha binolar, xonalar, yotoqxonalar asosan rus tilidagi tashviqot va targ'ibot ko'rgazmali qurollari va shiorlar, chaqiriqlar bilan bezatilar edi. Rus filologiya fakultetlarida milliy guruhlariga stipendiya 15 foiz qo'shib berilishi joriy etilgandi[7.527]. Bu ishlarning hammasi birga qo'shib milliy manfaat va qadriyatlarimizning toptalishi va oyoq osti bo'lishiga sabab bo'ldi. Kommunistik partiya va sovet hokimiyati bu siyosati bilan mahalliy yoshlarni zamon talablari asosida bilim olishiga suniy to'siqlar yaratgan edi.

1985-1991 yillar oralig'ida, ya'ni qayta qurish yillarida O'zbekistonda mutaxassislar tayyorlash tizimiga ham bir qator o'zgarishlar kiritildi. Ba'zi mutaxassisliklarni tayyorlashni qisqartirildi, yangi sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi va yana shu yo'nalishda oliy o'quv yurtlarining tarkibi qayta ko'rib chiqildi (yangi institutlar va universitetlpr ochildi, bir qator institutlarning yo'nalishi o'zgartirildi). Biroq Markaziy hukumat siyosiy rahbariyati ta'lim tizimining barcha tarmoqlarini, jumladan, oliy ta'lim sohasini ham mustabid tuzimni mustahkamlash va uni takomillashtirish uchun yo'naltirishga bo'lgan intilishlari hamda qarashlaridan voz kechmadi.

Xullas ikkinchi jahon urushidan keyingi murakkab va o'ta ziddiyatli yillarda O'zbekiston ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'limning o'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan demokratik va ijodiy jihatlar inkor etildi. Natijada, respublika oliy ta'lim tizimida ma'suliyatsiz, tashabbussiz, loqayd, "o'rtamiyona" mutaxassislar tayyorlash mexanizmi yuzaga keldi.

References:

1. Народной хозяйство Узбекской ССР за 1987 г. Стат. Ежегодник. –Ташкент: Узбекистан, 1988.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Ўзбекистон ССР тарихи. Қадимги даврлардан ҳозирги кунларгача. –Тошкент: Фан, 1974.
4. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. –Тошкент: Академия, 2003.
5. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939 – 1991 йиллар. – Тошкент: O'zbekiston, 2019.
6. Насыров Р. Социальное развитие села Узбекистана (1965-1985). –Ташкент, 1994.
7. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Учинчи китоб). – Андижон: Andijan nashriyot-matbaa, 2004.